

UDK:37.034:17.022.1(575.1)

MAMLAKATIMIZ YOSHLARINING YUKSAK TARBIYASI - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILIDIR

Quchqorova Nargiza Mamajonovna

*Toshkent Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası
professori, pedagogika fanlari doktori. E-mail: kuchkarova06071979@gmail.com
+998901625050*

Yo'lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: yolchiyevashahloxon@gmail.com +998911212205
ORCID:0009-0003-3441-3145*

Annotatsiya. Maqolada insonni kamolot cho'qqisiga erishishi uchun eng asosiy omillardan biri bo'lgan tarbiya, unga oid qarashlar va har bir insonni ma'nan va jismonan o'sishiga xizmat qiluvchi omillar, komil inson bo'lish fazilatlarini va saodatga erishish uchun poydevor vazifasini bajaruvchi ilmiy qarashlar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotga o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tarbiya berishni zamon talablariga mos keladigan usullar orqali yetkazish asosiy maqsadi qilib olingan. Tadqiqot uchun "Kim toza va tejamkor", "Bog' yaratib o'qiyamiz" metodlari asosiy qo'llanma vositasida foydalanildi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu usullarni qo'llash bolalarda aqliy, jismoniy va ma'naviy yuksalishlariga sabab bo'luvchi bilimlar omborini shubxasiz to'ldira oladi. Ushbu amaliyotni kichik yoshdagi bolalar va o'quvchilar orasida qo'llashning samarali va foydali tomonlari juda ko'p. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tozalikka rioya qilish, tejamkor bo'lish, yaxshi ilm egallash jamiyat iqtisodiyoti rivoji uchun katta maqsadlarga erishtiruvchi kichik qadamlardan biridir.

Kalit so'zlar: Tarbiya, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, "Tadbiri manzil", yoshlarning tarbiyasi, "Turkiy Guliston yohud axloq", intizom, "Kim toza va tejamkor".

КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ НАШЕЙ СТРАНЫ – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация. В статье рассматривается образование, как один из важнейших факторов достижения человеком вершины совершенства, взгляды на него, а также факторы, способствующие духовному и физическому развитию каждого человека, качества, необходимые для того, чтобы быть совершенным человеком, и научные взгляды, служащие основой для достижения счастья. Основная цель исследования — дать молодому поколению правильное образование с помощью методов, отвечающих требованиям времени. В качестве основных инструментов исследования использовались методы «Кто чист и экономен» и «Создаем сад и учимся». Результаты наших исследований показали, что использование этих методов, несомненно, может

пополнить багаж знаний у детей, что приведет к их умственному, физическому и духовному развитию. Использование этой практики среди маленьких детей и студентов имеет множество эффективных и полезных аспектов. В заключение можно сказать, что поддержание чистоты, бережливость и приобретение хороших знаний — это небольшие шаги на пути к достижению больших целей экономического развития.

Ключевые слова: Образование, физическое воспитание, интеллектуальное воспитание, нравственное воспитание, «Тадбири Манзил», воспитание молодежи, «Туркий Гулистан Ёхуд ахлоқ», дисциплина, «Кто чистоплотен и экономен?».

HIGH-QUALITY EDUCATION OF OUR COUNTRY'S YOUTH IS THE MAIN FACTOR OF THE DEVELOPMENT OF A NEW UZBEKISTAN.

Abstract. The article discusses education, one of the most important factors for a person to reach the peak of perfection, views on it, and factors that serve the spiritual and physical growth of every person, the qualities of being a perfect person, and scientific views that serve as the foundation for achieving happiness. The main goal of the study was to provide the younger generation with the right upbringing through methods that meet the requirements of the time. The methods "Who is clean and economical", "We will learn by creating a garden" were used as the main reference tool for the study. The results of our study showed that the use of these methods can undoubtedly replenish the storehouse of knowledge that will lead to mental, physical and spiritual growth in children. There are many effective and beneficial aspects of using this practice among young children and students. In conclusion, we can say that maintaining cleanliness, being economical, and acquiring good knowledge are small steps towards achieving big goals for economic development

Keywords: Education, physical education, intellectual education, moral education, "Tadbiri manzil", education of youth, "Turkiy Gulistan yoxud axloq", discipline, "Who is clean and economical?".

KIRISH

O'zbek xalqi uzoq tarixga borib taqaluvchi boy madaniyatga va tarbiyaning tuganmas nodir xazinalariga ega bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari insonparvarlik, mexnatsevarlik, ota-onada hurmat kichiklarga izzat, mehr-oqibat, do'stlik iymon e'tiqodning yuksak fazilatlariga ega bo'lgan millatdir.

Tarbiya - shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat

rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi farzandlarimizga navbatda, ta'lim tizimi va berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"[1],- deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, mamlakatimizda zamonaviy ta'lim- tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish o'z navbatida ilm-fan sohasi bilan o'zaro yaqin hamkorlikni o'rnatish muhim ahammiyat kasb etmoqda. G'arb va Yevropa madaniyatini yurtimizga kirib kelishi yoshlar tarbiyasida bir qancha salbiy va ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Ana shu madaniyatlarni ko'proq ijobiy tomonlarini egallash uchun esa bolalarga yo'nalish ko'rsatuvchi ustoz va murabbiylarning bilimlari ko'rsatmalari zarur. Tarbiyali yosh avlodni yetishtirish uchun esa tadqiqotlarimizni va o'rganishlarimiz ni tarbiyaga yo'naltirgan holda mamlakatimiz rivoji uchun o'z hissamizni qo'shmoqchimiz. Shu o'rinda, yurtimizda ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar uzviyligini muntazam davomligini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish va uning mazmun-mohiyatini jamiyatda chuqur singdirish istiqboldagi asosiy vazifa etib belgilandi va buni amalda ko'rsatib borish biz ustoz va murabbiylarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarixdan ma'lumki, har qanday xalq va millat hayotida farzand tarbiyasiga juda nozik va jiddiy masala sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Madomiki, farzandga berilayotgan tarbiya tufayli kelajakda ularning qanday inson bo'lib voyaga yetishini va o'z navbatida mazkur omillar yurti kelajakdagi taraqqiyotini belgilab berishga zamin yaratgan. Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar o'zlarining beqiyos ma'rifatlari bilan umuminsoniy madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishgan. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ma'rifatni ilm, amal, odob bilan o'zaro bog'liq xislatlar deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko'ra, kishining odobi, xulqi

uning ma'rifati, bilimdonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal bo'ladi. Biz farzand tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning: "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", – degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Tarbiyani keng ma'noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo'ymaydi. U, avvalo, bolaning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish lozimligiga e'tibor qarata- di. Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», – demishlar. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko'ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin.

Tarbiyaga oid qarashlarning yorqin na'munasi va ma'lumotlar jam bo'lgan asosiy manba sifatida A.Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" asari birinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. A.Avloniy o'z asarida tarbiyaning zamoni ham mavjudligini ta'kidlab o'tadi. "Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan." [2] Eng birinchi tarbiya esa ona tomonidan amalga oshiriladi. U tarbiyalarni ham badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, fikr tarbiyasi kabi yo'nalishlarga bo'lib chiqadi.

Badan tarbiyasi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar." [2]

Fikr tarbiyasi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir

vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir"[2]

Axloq tarbiyasi: "Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur."[2]

Tarbiyamiz chiroyli qarashlarimiz aniq bo'lishi uchun albatta qat'iy intizomga amal qilmog'imiz zarur. Intizom -qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilishga aytiladi. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. "Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tarbiyat berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so'zlamakdan ojizdur."[2]

Tarbiya — buyuk ne'mat. Nafaqat bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir. Hayot olamida, shubhasiz, tarbiya singari insoniyatga ta'sirli narsa yo'qdir. Shu sababdan qadimdan mashhur donishmandlar tarbiya to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirganlar. Yoshlar tarbiyasi, ularni ilmi va har tomonlama yetuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o'sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo'lib yetishishlariga undagan. Darhaqiqat, nafaqat har bir oila, balki yer sayyorasidagi har bir mamlakatning gullab-yashnashi, undagi yashovchi xalqlarning farog'ati ham shak-shubhasiz ta'lim va tarbiya tufaylidir.

Chiroyli to'g'ri tarbiya berish orqali bolalarda ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, tejamkorlik, pokizalik, atroff muhitni ifloslantirmaslik, tabiatni asrab avaylash kabi fazilatlar shakillantiriladi. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani birga olib boorish maqsadida maktablarda tarbiya alohida fan sifatida kiritilgan. Ushbu fan orqali tarbiyaning turli hil ko'rinishlarini bolalarga yetkazish mumkin. Xususan hozir tadqiqotimiz uchun olingan "Kim toza va tejamkor", "Bog' yaratib o'qiymiz" metodlari ham aynan bolalar tarbiyasi uchun yo'naltirilgan. "Kim toza va tejamkor"

metodi ayni tarbiya fani uchun ishlab chiqilgandek go'yo. Ushbu metodni qo'llanishi bilan tanishib chiqamiz.

“Kim toza va tejamkor”

Ushbu metodni qo'llash uchun bizga bir martalik suv uchun idishlar, suv, idishda tuproq va salfetka kerak bo'ladi. Bitta darsda 8-10 ta o'quvchi bilan ushbu metodni qo'llasa bo'ladi. Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

-dastlab suv idishlarga teng miqdorda suvlar quyib chiqiladi;



-o'quvchilar doskaga chiqarilib qo'llari tuproq bilan ifloslantiriladi;



-keyin bolalarga topshiriq beriladi. Qo'llarini stakandagi suv bilan yuvishlari kerakligi. Suvni foydalanishda tejamkorlikka amal qilishlari kerakligi, iloji boricha ishlatilayotgan suv qo'llarini tozalash uchun yetishi, imkon qilishsa ortib ham qoldirishlari kerakligi uqtiriladi;

-tajribadan olingan natija tahlil qilinadi;

-suvni isrof qilmagan va qo'llari toza holga kelgan bolalar rag'batlantiriladi.

Ma'lumki, ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino merosida ilm va axloq uyg'unligi masalasi alohida o'rin tutadi. Allomaning "Tadbiri manzil" risolasida tarbiya

masalasi ko'proq tahlil etilgan. Xususan, "Tadbiri manzil"da inson tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmasligi qayd etiladi. Bunday xususiyatlar odamning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya o'zgalarning ta'siri ostida shakllanadi. SHaxs kamolotida ijobiy fazilat va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy qiyofaga yopishib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish shunchalik murakkabdir. Alloma nazdida bolalar tarbiyasini barvaqt boshlagan ma'qul: "Bola tana bo'g'inlari barqaror bo'lgan, uning tili to'g'ri, ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgalar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga (tabiiy) moyillik paytdan boshlab uni ilmlar va axloq-odob (asoslari)ga o'rgatib borish lozim".

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar, mazkur chorrahada yomon yo'lga burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilinishni boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri internetdan noo'rin foydalanishdir! Darhaqiqat, internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan samarali foydalanilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimidan haqqoniy ma'lumotlarni saralay bilish, to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan yoshlarni internet saytlarga

kirishida axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur.

Olib borgan tadqiqotlarimiz davomida foydalanilgan metodlarimiz samarali foyda berdi. O'quvchilarni toza va ozoda yurishga va tejamkorlikka yo'naltiruvchi ham amaliy ham nazariy bilimlarga ega bo'lishdi. Albatta tarbiya inson uchun eng oliy o'rinni egallovchi yuksak fazilat ekanligiga shubha yo'q. Yuksak axloqiy tarbiyaga ega bo'lgan millat yashovchi davlatning kelajagi ham porloq, nomi ulug'vor bo'ladi.

"Ibn Mas'ud r.a dan rivoyat qilinadi: Nabiy s.a.v dedilar: "Qiyomat kuni odam bolasining qadami to undan besh narsa haqida: umrini nimaga sarflagani, yoshligini nimaga ketkazgani, molini qayerdan kasb qilib olgani va qayerga sarflagani, bilganiga qanday amal qilgani haqida so'ralmagunicha, Robbi huzuridan uzilmaydi". Termiziy rivoyat qilgan. Bas, biz yoshlar oldimizdagi ulkan marralarga yetishimiz uchun bugungi vaqtimizni zoye qilmaslikka, berilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishga, vatanimiz uchun xizmat qiladigan fidoiylardan bo'lishga intilmog'imiz va doimo harakatda bo'lishimiz shart!" [3]

XULOSA

Shu o'rinda, har qanday davlat taraqqiyotining tamal toshi ta'lim va tarbiya masalalariga qaratilayotgan e'tibor bilan bevosita bog'liq. Dunyoda o'qituvchi bo'lishning qiymati va nufuzi shu darajada balandki, o'qituvchilarga bo'lgan munosabat ular bilan bir maskanda yashash sharaf hisoblanadi. Fransiyada boylar o'z yashash joylari bilan maqtanish uchun o'qituvchilar bilan bir hududda yashashga intilishar ekan. Ta'lim-tarbiyani nihoyatda nozik masala ekanligi xorijlik davlat arboblarning doimiy e'tiborida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu haqda, Turkiyaning buyuk davlat arbobi Mustafo Kamol Otaturkdan tarbiya haqida so'rashdi: Agar jumhuriyat prezidenti bo'lmaganingizda kim bo'lar edingiz? Mustafo Kamol o'ylamasdan turib dedi: Tarbiya vaziri bo'lar edim! Otaturk ana shunday fikrlar edi. U o'zining istaklariga mos avlodni tarbiya qilishni istadi. Tarbiya vaziri... U oshpazga o'xshaydi. U yo ovqatni zaharlab seni o'ldiradi. Yoki shirin ovqat tayyorlab sening sog'lig'ing va ofiyatingga sabab bo'ladi. Tarbiya vaziri...U muhandisga o'xshaydi. U yo yosh avlodni buzib yo'q qilib tashlaydi. Yoki uni

uyg'otibshu bilan birga millatni ham uyg'otadi. Shuning uchun hukumat va nizomlar bu "mansab"ga ma'lum me'yorlar asosida tanlangan kishilarni qo'yishadi. Sharq hikmatlarida "Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi"[5], deya bejiz ta'kidlanmagan.

ADABIYOTLAR RO'YHATI. (REFERENCES)

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat_mirziyeevning-ituv-30-09-2020 (Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the Day of Teachers and Mentors)
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: 2008. (Abdulla Avloni. Turkish rose or morality. – Tashkent: 2008.)
3. A.Hakimov ["yoshlar-tarbiyasi-jamiyatdagi-muhim-masala."](#) [Nomli maqolasidan](#) (A. Khakimov from his article "Youth-education-is-an-important-issue-in-society.")
4. Abu Ali ibn Sino "Tadbiri manzil" risola (Abu Ali ibn Sino "Tadbiri Manzil" treatise)
5. Musaev. M "O'qituvchining maqomi konstitutsiyada kafolatlanadi" Marifat gazetasi 2023-yil 26-aprel. № 17(9446). b-11. (Musaev. M "The status of a teacher is guaranteed in the constitution" Marifat newspaper, April 26, 2023. No. 17 (9446). b-11.)
6. Kulchayeva D. Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari // Academic research in educational sciences. 2021. №11 (Kulchayeva D. Scientific and methodological foundations of teaching the subject "Education" in primary grades // Academic research in educational sciences. 2021. No. 11)
7. Olimov.Sh.SH "Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari" (Monografiya) T.: "Fan va texnologiya". (Olimov.Sh.SH "Fundamentals of spiritual and moral education" (Monography) T.: "Science and technology".)
8. Ochilov M "O'qituvchi odobi" Toshkent. O'qituvchi, 2002 y (Ochilov M "Teacher etiquette" Tashkent. Teacher, 2002)
9. Rajabov U "O'qituvchilarga iqtisodiy tarbiya berish" Termiz, Mehnat, 2002 yil (Rajabov U "Economic training of teachers" Termez, Mehnat, 2002)
10. Quchoqorova N.M, Otayeva.S.S, Amangaldiyeva.A.R "PEDAGOGIK MAHORAT" "Bookmany print" nashriyoti, № 537233 2024-yil 11-mart. (Kuchqorova N.M, Otayeva.S.S, Amangaldiyeva.A.R "PEDAGOGICAL SKILLS" "Bookmany print" publishing house, No. 537233 March 11, 2024.)
11. Yo'lchiyeva Sh.O. "THE CONCEPT OF FACILITATION AND ITS SIGNIFICANCE IN PRIMARY CLASSES" "Sciens and innovation", 2024-yil 5-son, № MG-2024-05-7267, 168-171 bet. (Yo'lchiyeva Sh.O. "THE CONCEPT OF FACILITATION AND ITS SIGNIFICANCE IN PRIMARY CLASSES" "Sciences and innovation", 2024, No. 5, No. MG-2024-05-7267, pp. 168-171.)